

MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI VA XARAJATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tursunboyev Bobur

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mahalliy byudjetlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati, ularning shakllanishi va boshqaruvi masalalari tahlil qilinadi. Xususan, o'tgan asrning 90-yillarida markazlashuvning kamayishi va boshqaruv vakolatlarining mahalliy darajalarga o'tishi natijasida yuzaga kelgan moliya-byudjet tizimidagi nomarkazlashuv jarayonlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mahalliy byudjet, byudjet daromadi, byudjet xarajati, moliviy barqarorlik, innovatsiya, moliyaviy xavfsizlik.*

THEORETICAL BASIS OF IMPROVING LOCAL BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES

Tursunboyev Bobur

*Master's student of the Banking and Finance Academy of the
Republic of Uzbekistan*

Abstract. *This article analyzes the economic and social significance of local budgets, their formation and management issues based on the experience of developed countries. In particular, it discusses the processes of decentralization in the financial and budgetary system that arose in the 90s of the last century as a result of the decrease in centralization and the transfer of management powers to local levels.*

Keywords: *local budget, budget revenue, budget expenditure, financial stability, innovation, financial security.*

Dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning o'tgan asr 90 yillaridagi iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi tajribasi shundan dalolat beradiki, ushbu mamlakatlarda xo'jalik yuritishda va boshqaruvda markaziy hukumat hamda mahalliy davlat organlari o'rtasida vakolatlarining nomarkazlashuvi jarayoni kuchaygan. Ushbu jarayon xududlarning iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi darajasini tenglashtirish

maqsadida mamlakatdagi moliya – byudjet sohasidagi nomarkazlashuviga olib keldi. Xalqaro amaliyot shundan dalolat beradiki, mahalliy byudjet muammosini ijobiy xal etmasdan, xududlarning iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirish darajasi mutanosibligini saqlash, iqtisodiy jixatdan qoloq xududlarni rivojlantirish, turg'unlik xolatidagi xududlarning iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va aholisi ushbu xududlarda istiqomat etuvchi aholini ijtimoiy himoya qilish masalasini xal etib bo'lmaydi. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan muammolarni xal etishda mahalliy moliyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy byudjetlarning ahamiyati beqiyos kattadir. Chunki, har bir xududdagi mavjud murakkab muammoni ijobiy xal etish katta mablag' talab etadigan markazlashgan pul fondlarini tashkil etishni va undan samarali foydalanishni talab etadi. Ushbu jarayon juda ko'p ilmiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi.

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati uning maqsadlilikiga bilan aniqlanadi. Mahalliy byudjetlar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:


- xududiy davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlarini moliyaviy ta'minlash uchun pul fondlarini shakllantirish;
- tashkil etilgan pul fondlarini xududdagi iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida oqilona taqsimlash va undan samarali foydalanish;
- xududlarda istiqomat etayotgan aholi uchun minimal darajadagi ijtimoiy–madaniy tadbirlarni tashkil etish va uni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash;
- xududlarda joylashgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subektlarining, shu jumladan, byudjet tashkilotlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qilish.

Rivojlangan mamlakatlardagi mahalliy moliyaning tashkil etishning tajribasi shundan dalolat beradiki, aholiga yaratiladigan ijtimoiy ne'matlarni (maorif, sog'liqni saqlash, fan, ijtimoiy himoya va boshqalar) yetkazish asosan, mahalliy byudjetlar orqali yetkaziladi. Hozirda mahalliy davlat organlariga davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdek muhim vazifa yuklatilgan. Mamlakatning turli hududlarida istiqomat etuvchi aholiga ijtimoiy – madaniy xizmat ko'rsatish harajatlarini moliyalashtirish esa, asosan, mahalliy byudjetlar orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish juda katta moddiy va moliyaviy resurslarni talab etadi. Umuman, davlat pul resurslarini mavjud byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi asosan, quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi;

- byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet hujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi;
- turli darajadagi byudjetlarning o‘zaro bog‘liqligi;
- davlat daromadlarini aniq manbalar bo‘yicha va harajatlar yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha rejalashtirish;
- davlat byudjeti harajatlarini byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida sarflash.

Yuqoridagi tamoyillarga asosan mahalliy byudjetlarning daromadlari ikki guruhga, ya’ni biriktirilgan daromadlar va muvofiqlashtiriladigan daromadlarga ajratiladi. Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan va tartibga solib turuvchi daromadlar tarkibini biz ilmiy ishimizning quyidagi rasmida keltiramiz.



1-rasm. Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan va muvofiqlashtiriladigan daromadlarining tarkibi

Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari o‘z mohiyatiga ko‘ra tegishli xududga amaldagi qonunga asosan, to‘liq va doimiy tarzda, yuqori byudjetni chetlab o‘tgan xolda tushadigan daromadlardir.

Biriktirilgan daromadlarni mahalliy soliqlar va yig‘imlar hamda federal soliqlardan qat’iy belgilangan ulush va doimiy tushadigan soliqlar tashkil etadi.

Muvofiqlashtiriladigan daromadlar esa, mahalliy byudjetlarning daromadlari va harajatlarining mutanosibligini saqlab turish uchun yuqori byudjetdan

ajratiladigan pul yig'indisidan iborat.

Muvofiqlashtiruvchi daromadlar tarkibiga umumdavlat soliqlardan foizli ajratmalar, dotatsiya, subvensiya, subsidiya, xududlarni moliyaviy qo'llab - quvvatlash fondidan mablag'lar va o'zaro hisob-kitoblar asosida yuqori byudjetlardan olingan mablag'lar kiradi.

Xalqaro amaliyotda muvofiqlashtiriladigan daromatlarni (asosan umumdavlat soliqlari) byudjetlararo taqsimlanishining quyidagi uchta asosiy shakllaridan keng foydalaniladi:

1. Soliq tushumlarini byudjetlararo taqsimlash va ulardan alohida foydalanish;
2. Umumdavlat soliqlardan birgalikda foydalanish;
3. Umumdavlat soliqlarning qayta taqsimlanishi;

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan umumdavlat soliqlarining markaziy va mahalliy davlat organlari o'rtasida taqsimlanishi turli mamlakatlarda ulardagi byudjet soliq tizimiga asosan turlichadir. Biz ilmiy izlanishimizning quyidagi jadvalida xorijiy mamlakatlarda soliqlarning asosiy turlari bo'yicha markaziy va mahalliy davlat organlari o'rtasida soliq vakolatlarining taqsimlanishini keltiramiz.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, federal davlatlarda soliq manbalaridan alohida foydalanish, soliq manbalaridan birgalikda foydalanish va soliqlardan kelgan tushumlarni taqsimlash kabi usullardan foydalaniladi. Masalan, AQShda har bir shtat aksiz solig'i ustiga qo'shimcha ustama qo'yish vakolatigaega.

Federativ davlatlarda davlat byudjeti harajatlarining taqsimlanishi ham turlicha. Lekin, shuni ta'kidlash lozimki, biz tahlil etgan davlatlarning barchasida mahalliy byudjetlar harajatlari tarkibida asosiy ulushni ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish harajatlari egallaydi.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda xududiy byudjetning harajatlar qismiga asos etib, mahalliy hokimiyatlar moliya xizmati tomonidan tegishli o'zgartirishlar kiritiladigan smetalar yig'indisi olinadi. Ushbu mamlakatlarda kelgusidagi moliya yili uchun xududiy byudjet loyihasi tegishli departamentlarning harajatlari smetasi va mavjud barcha moliyaviy majburiyatlar (mahalliy davlat qarzlari) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summalar hamda kelib tushishi kutilayotgan daromadlar summasi bilan taqqoslanadi. Munitsipal (mahalliy) kengashda muhokama qilingandan so'ng, xududiy byudjet loyihasi mahalliy ijroiya hokimiyati rahbariga tasdiqlash uchun kiritiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, byudjet loyihasida soliq stavkalari va

kelajakda ko‘zda tutilayotgan qarzlar ham ko‘zda tutiladi.

1-jadval

**Ayrim davlatlarda soliq undirishdagi vakolatlarning taqsimlanishi
(Alimov I.I., 2007)**

T/r	Soliqning nomlanshi	Soliq manbalaridan alohida foydalanish	Soliqdan kelgan tushumlarni taqsimlashda foydalanish	Soliq manbalaridan birgalikda foydalanish
1	Qo‘shilgan qiymatsolig‘i	Kanada	Germaniya, Rossiya	-
2	Aksizlar	-	Rossiya	AQSH, Kanada, Germaniya
3	Sotuvdan soliq	AQSH, Kanada	-	-
4	Daromad (foyda) solig‘i	-	Germaniya	AQSH, Kanada, Rossiya
5	Jismoniy shaxslardan daromadsolig‘i	-	Germaniya, Rossiya	AQSH, Kanada
6	Mol-mulk solig‘i	AQSH, Kanada, Rossiya, Germaniya	-	-
7	Tabiiy resursdan foydalanish solig‘i	AQSH, Kanada	-	Rossiya

Maxaliy davlat organlari byudjet loyihasini ishlab chiqishda amaldagi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan byudjet tamoyillariga qat‘iy amal qilishlari lozim. Byudjet tamoyillarining asoslari quyidagilardan iborat:

- byudjet tizimining ma‘muriy-xududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- byudjetning umumiy balansligini ta‘minlash;
- byudjetning butligini ta‘minlash.

Yuqoridagilarni umumlashtirsak, byudjet loyihasida davlat daromadlarining aniq manbalari va harajatlarning yo‘nalishlari (moddalari) bo‘yicha

rejalashtirish lozim.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida, masalan Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya va Fransiyada markaziy hukumat xududlarida istiqomat etuvchi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad miqdoriga asosan, mahalliy byudjetlarga soliq tushumlari masalasida turli o'zgarishlar kiritildi. Ushbu yo'nalishda markaziy (federal) hukumat aholining o'rtacha daromadi nisbatan yuqori bo'lgan xududlarining mahalliy byudjetlaridan aholining o'rtacha daromadi past xududlarining mahalliy byudjetlari foydasiga soliq tushumlarining ma'lum qismini undirib oladilar. Masalan Germaniya Federativ Respublikasini olaylik. Ushbu mamlakatda sobiq Germaniya Demokratik Respublikasi tarkibidagi aholi daromadi mamlakat o'rtacha daromadlaridan juda pastligi sababli, sanoati rivojlangan, iqtisodiy-moliyaviy barqaror g'arbiy xuddagi yerlarning mahalliy byudjetlari hisobidan daromadlarni tenglashtirish maqsadida, yiliga 7-8 mlrd. yevro miqdoridagi mablag' qayta taqsimlanadi (www.evronevs.net. ma'lumotlari).

Hozirgi davrda mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy soliqlar, yig'imlar, soliqsiz to'lovlar, umumdavlat (federal) soliqlardan foizli ajratmalar va yuqori byudjetlardan o'zaro hisob-kitob asosida keladigan mablag'lardan tashkil topmoqda. Xududiy byudjetlarning birlashtirilgan daromadlari va muvofiqlashtiruvchi daromadlari o'rtasidagi muvozanat alohida olingan mahalliy davlat boshqaruv organlariga qonun asosida yuklatilgan funksiyalarga, ularning vakolati yuklatilgan xududlardagi mahalliy soliqlarni yig'ish potensialidan va ularning markaziy (federal) davlat organlaridan xududlarga moliyaviy qo'llab - quvvatlash imkoniyatlariga bevosita bog'liqdir. Xalqaro amaliyot tajribasi shundan dalolat beradiki, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar orasida iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan mamlakatlarda umumdavlat moliya resurslari tarkibida mahalliy byudjetlarning egallagan ulushi kattadir.

Masalan, iqtisodiyoti nisbatan sust rivojlangan Portugaliyada mahalliy byudjetlarning ulushi yalpi ichki mahsulotlarning atigi 3,0 % ni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiyoti rivojlangan Norvegiyada yalpi ichki mahsulotlarning 15,0 %ni va yuqori iqtisodiy taraqqiyotga ega Shvetsiyada ushbu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotning 31,0 %ni tashkil etadi (Polyak G.B. Territorialniye finansi. Ucheb. posobiye. –M: «VZFEI». - 2006. - 271 S.).

Mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Ushbu byudjetlarga kelib tushadigan barcha soliqlarni ikki asosiy guruhga ajratiladi. Bularga mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan foizli ajratmalar kiradi. Biz ilmiy izlanishimizda ushbu soliqlarning mohiyati va

ularning o'ziga xos xususiyatlarini kengroq ochishga harakat qilamiz.

Xalqaro amaliyotda har bir alohida olingan mamlakatda amal qiladigan soliq-byudjet qonunchiligiga asosan, xududiy byudjetlarga ayrim mahalliy soliqlar birlashtirib qo'yiladi. Ushbu birlashtirib qo'yilgan mahalliy soliqlar bo'yicha stavkalarni qoida tariqasida ushbu xududiy davlat organlari belgilaydi. Dunyoning turli mamlakatlarida birlashtirilgan soliqlarning soni turlicha, ba'zilarida ularning soni 20 tani tashkil etsa, ba'zilarida esa ularning soni 100 tagacha yetadi. Ularning mahalliy byudjetlar daromadlaridagi egallagan ulushi 30,0 foizdan 70,0 foizgacha tashkil etadi.

Xalqaro amaliyotda soliqlarni o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhga, ya'ni «bevosita» va «bilvosita» soliqlarga ajratiladi. Mamlakatimizda iqtisodchi olimlar o'rtasida soliqlarni mohiyatiga ko'ra guruhlashda turli fikrlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar soliqlarni mohiyatiga ko'ra «to'g'ri» va «egri» soliqlarga ajratadilar. Ayrim iqtisodchi olimlar soliqlarni mohiyatiga ko'ra «bevosita» va «bilvosita» soliqlarga ajratadilar. Biz ilmiy izlanishimizda ushbu fikr – mulohazalarni o'zaro taqqoslab, o'z fikrimizni bildirishga harakat qilamiz.

Rossiyada chop etiladigan iqtisodiy adabiyotlarning barchasida soliqlarning mohiyatiga ko'ra «pyamiye» va «kosvenniye» guruhlariga ajratiladi. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ba'zilarida o'zlarining ilmiy ishlarida yuqoridagi atamalarni to'g'ridan – to'g'ri o'zbek tiliga o'g'irganlar. Buning natijasida «egri soliqlar» va «to'g'ri soliqlar» degan atamalar muomalaga kirgan. Biz ushbu xolatga e'tirozimizni bildiramiz.

Darxaqiqat, soliqlarni undirilishiga asosan to'g'ri yoki egri soliqlarga ajratish mumkin. Lekin ushbu xolat, bizning fikrimizcha, mantiqqa mos kelmaydi. Agarda soliq to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxs o'ziga tegishli soliqlarni (daromad solig'i, mol – mulk solig'i, yer solig'i va boshqalar) amaldagi qonunchilikka asosan, o'zi to'liq bilgan xolatda va o'zi hisoblab hamda belgilangan muddatda to'lasa, bunday soliqlar o'z mohiyatiga ko'ra bevosita soliqlar hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning aksariyat ko'pchiligi ayrim mahsulotlarni harid qilishi jarayonida undagi belgilangan soliqning miqdorini bilmagan xolatda to'laydi. Masalan, o'simlik yog'i, xo'jalik sovuni, spirtli mahsulotlarni yoki sigaretalar harid qilganimizda, undagi soliqlar miqdorini bilmaymiz, lekin to'laymiz.

Bunday soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini keltirish mumkin. Ushbu soliqlar o'z mohiyatiga asosan egri soliqlar emas, balki bilvosita soliqlar hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mutaxassislar o'rtasida «egri va to'g'ri soliqlar» degan atamalar o'rniga mohiyatan asosli bo'lgan bevosita va

bilvosita soliqlar degan atamalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlari hisoblanadigan AQSH, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar va Yaponiyada davlat byudjeti, shu jumladan, mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida bevosita soliqlar asosiy salmoqni egallaydi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida daromad solig'i va mol – mulk soliqlari mahalliy byudjet daromad tushumlarining 70,0 – 75,0 foizini tashkil etadi. Iste'molchilardan undiriladigan savdo solig'i esa umumiy tushumlarning 3,0 – 4,0 foizini va boshqa soliqlar esa 20,0 – 25,0 foizni tashkil etadi. Yaponiyada byudjetning umumiy tushumlari tarkibida bevosita soliqlar 85,0 foizni tashkil etsa, qolgan 15,0 foizni bilvosita soliqlar tashkil etadi. AQShda davlat byudjeti daromadlari tarkibida esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 40,0 foizni tashkil etadi.

Dunyoning turli mamlakatlarida bevosita soliqlar orasida daromad (foyda) solig'i va mol – mulkning turlaridan undiriladigan soliqlar o'rtasida nisbat juda katta tafovutlar bilan farqlanadi. Skandinaviya mamlakatlari hisoblangan Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiyada davlat byudjet daromadlarining 80,0-90,0 foizini daromad va foyda soliqlaridan tushumlar tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich Avstriya, Belgiya va Germaniyada 50,0 foizdan ortiqni tashkil etadi. Dunyoning boshqa mamlakatlarida mahalliy byudjetlar tushumlarning asosiy qismini mulkchilikning turli shakllarida undiriladigan soliqlar tashkil etadi. Ushbu soliqlardan tushumlar Irlandiya mahalliy byudjetlari daromadlarining 100,0 foizini, Niderlandiyada esa byudjet tushumlarining 2/3 qismini tashkil etadi.

Yaponiyada mahalliy byudjetlar daromadlarining 48,0 foizini turar joydan undiriladigan soliq va 21,0 foizni ko'chmas mulkdan undiriladigan soliq tashkil etadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mahalliy hokimiyatlar tomonidan birlashtirib qo'yilgan soliqlarga ustamalar o'rnatish usuli bilan mahalliy byudjetga tushumlarni ko'paytirish tajribasi ham mavjud. Asosan bunday ustamalar qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i va yer solig'i bo'yicha qo'llaniladi. Masalan, AQShda hozirda 50 ta shtat mavjud bo'lsa, ushbu shtatlarda bir xil iste'mol tovarlarining baxolari bir-biridan farq qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy hokimiyat o'zlarining mahalliy byudjetlarining daromadlarini ko'paytirish maqsadida asosiy soliqlar hisoblangan daromad, foyda, mol-mulk va yer soliqlaridan tashqari o'z xududlarida boshqa mahalliy soliqlar va yig'implarni o'rnatadilar. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday mahalliy soliqlar va yig'implarning foiz stavkalari

katta bo'lmasa, ular mahalliy (munitsipal) hokimiyat uchun katta ahamiyatga egadir. Mahalliy soliqlarning tarkibi, obekti va subektlari turli mamlakatlarda turlicha. Ular tarkibiga ko'chmas mulkni sotish bitimlarini rasmiylashtirish uchun soliq, vitrinalar va ko'cha reklamalari uchun soliqni kiritish mumkin. Bu yerda reklamalar, ularning kattaligi, yoritilish hajmi va yorug'lik darajasiga qarab belgilanadi. Ayrim mamlakatlarda ishlar uchun soliq, ko'ngilochar tadbirlar hisoblangan festivallar, sport musobaqalari uchun soliq va avtomat o'yin apparatlari uchun soliqlar amal qiladi. Ushbu soliqlarning ahamiyati haqida fikr yuritsak, ular ahamiyatga ega emasdek hisoblanadi. Lekin ushbu soliqlarning o'ziga xos xususiyati mavjud. Futbol ishqibozlariga ma'lumki, Yevropa Chempionlar Ligasi kubogi uchun Moskvada Angliyaning «Manchester Yunaytet» va «Chelsi» futbol jamoalari o'rtasida final o'yini bo'lib o'tdi. Ushbu o'yinni tashkil etgan Moskva shahar meriyasi byudjetiga 45,0 mln. AQSH dollari kelib tushgan. Agarda Moskva shahar meriyasi barcha harajatlarga 20,00 mln AQSH dollari sarflagan bo'lsa, ular tomonidan kiritilgan qo'shimcha soliqlar va yig'imlar 25,0 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Albatta, ushbu tajribani kelajakda mamlakatimizda qo'llash foydadan xoli bo'lmas edi, deb hisoblaymiz.

Ayrim mamlakatlarda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mahalliy byudjet daromadlarini oshirish maqsadida noan'anaviy soliqlarni amaliyotga kiritadilar. Masalan, Fransiyada aholisi 30 mingdan ortiq shaharlarda kommunal jamoa transporti uchun soliq o'rnatilgan. Ushbu soliqni xududda faoliyat yuritayotgan va ishchilar tarkibida yollanma ishchilarning soni to'qqizdan ortig'ini tashkil etuvchi barcha xo'jalik subektlari to'laydilar. Bundan tashqari, Shvetsiya, Fransiyada mahalliy hokimiyat xududda istiqomat etuvchi aholi bilan kelishilgan xolda yo'llarni qurish, trotuarlar yotqizish, ko'chalarni supirish, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadida doimiy yokivaqtinchalik soliqlarni amaliyotga kiritadilar.

Ayrim mamlakatlarda mahalliy hokimiyat tomonidan chiqindilarni olib chiqib ketish va elektr energiyasidan foydalanganlik uchun qo'shimcha soliqlar joriy etadilar. Ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida chiqindi muammosi mavjud. Bunga misol, yaqinda Italiyada yuzaga chiqqan chiqindi masalasi, faqatgina markaziy hukumat faol aralashgandan so'ng xal etilgan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida so'ngi yillarda ekologiya masalasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda maxsus ekologiya dasturlari mavjud. Ushbu dasturlarda esa nafaqat ekologiyaga ziyon yetkazadigan korxonalariga nisbatan, hatto avtomobillarning ekologik xolatiga

ham qat'iy talablar o'rnatilgan. Ushbu tartib - qoidalarni buzuvchilardan maxsus ekologik jarima undiriladi.

Ekologik jarimalardan tushumlar mahalliy byudjetlarning umumiy daromadlari tarkibida katta ulush egallamasada, u qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Biz ilmiy izlanishimizni yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mahalliy byudjetlarning muvofiqlashtiruvchi daromadlari o'z tarkibiga umumdavlat (federal) soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar va yuqori byudjetlar bilan o'zaro hisob – kitob asosida olingan mablag'larni oladi.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning hozirgi zamon soliq tizimi asosan ikki guruhdan: bevosita soliqlar (daromad solig'i, mol- mulk solig'i) va bilvosita soliqlardan (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari) iboratdir. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar AQSH, Daniya, Kanada va Yaponiyada asosiy ulushni egallasa, bilvosita soliqlar Fransiya, Italiya va Norvegiyada asosiy ulushni egallaydi. Shuning uchun ushbu mamlakatlarda byudjetlararo munosabatlar bir – biridan farq qiladi. Ushbu mamlakatlarda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar mahalliy byudjetlarga xududlarda maxsus dasturlarni, ya'ni sog'liqni saqlash, atrof – muhitni muhofaza qilish, yo'l qurish, moliyalashtirishda mahalliy byudjetning o'z daromadlari yetarli bo'lmagan xolatlarda ajratiladi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda markaziy davlat organlari tomonidan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mahalliy hukumatga yuklatilganligi sababli, bu mahalliy hukumatning moliyaviy jihatdan markaziy hukumatga qaramligini yuzaga chiqardi. Ayrim mamlakatlarda mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida umumdavlat (federal) soliqlaridan ajratmalar asosiy ulushni egallamoqda. Masalan, ushbu ko'rsatkich Italiyada 60,0 foizni tashkil etmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjetlarga asosan ikkinchi darajali soliqlar va yig'img'lar biriktirib qo'yilgan. Lekin keyingi yillarda ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mahalliy hukumat zimmasiga yuklatilganligi oqibatida ular o'z vazifalarini bajarishi uchun moliyaviy mablag'larning yetishmasligi va buning natijasida, mahalliy byudjetlarning doimiy taqchilligi yuzaga kelgan. Mahalliy byudjetlarning daromadlari va harajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash uchun markaziy hukumat dotatsiyalar va subvensiyalardan keng foydalanmoqda. Ayrim mamlakatlarda mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida dotatsiya va subvensiyalarning ulushi 20,0-40,0 foizini tashkil etmoqda. Agarda hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasida 21 ta respublika byudjeti, 55 ta o'lka va

viloyatlar, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari byudjetlari, bitta avtonom viloyat byudjeti, o'nta okrug byudjetlari va 29 mingta mahalliy (tuman, shahar, posyolka va qishloqlari byudjetlari) mavjud bo'lsa, ulardan 85,0-92,0 foizi dotatsiya hamda subvensiya hisobiga o'z daromadlari va harajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlaydilar (Finansi. Uchebnik Pod red.akad G.B.Polyaka. -M.: «YUNITI - DANA». - 2007. - 245 S.). Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra byudjet dotatsiyasi, o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda, quyi byudjetning harajatlari va daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga, qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari hisoblanadi.

Byudjet subvensiyasi esa – bu, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga, qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari hisoblanadi. Dotatsiya va subvensiyalarning sarflanish yo'nalishini nazarda tutmasak, ular iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliq mablag'lariga yaqindir.

Chunki ularning asosida umumdavlat (federal) soliqlari yotadi. Dotatsiya va subvensiya har bir mamlakatda mahalliy byudjetlarning doimiy ravishda, ma'lum miqdordagi taqchilligi tufayli amaliyotga kiritiladi. Bundan tashqari markaziy hukumat davlat (federal)byudjetidan mahalliy byudjetlarga dotatsiya va subvensiya ajratish orqali nafaqat xududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega, balki mahalliy hokimiyatlar tomonidan ularga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishlarini ham doimiy nazoratetadi.

Xalqaro amaliyotda mahalliy byudjetlarning soliqsiz daromadlari ham mavjud. Ushbu soliqsiz daromadlar tarkibiga asosan, mahalliy (munitsipal) hokimiyatga tegishli korxonalar faoliyatidan keladigan daromadlar, uy-joylarni ijara to'lovlaridan tushumlar, turli pulli yig'imlar, barcha turdagi jarimalar, bojlar va xududda faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, kompaniyalar, firmalar hamda aholining ixtiyoriy badallari kiradi. Mahalliy byudjetning soliqsiz to'lovlarini umumiy daromadlar tarkibida egallagan ulushi turli mamlakatlarda turlicha. Ba'zi mamlakatlarda umumiy daromadlar tarkibida soliqsiz to'lovlarning ulushi 10,0 foizni tashkil etsa, ayrim mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 30,0 foizgacha yetadi. Buning asosiy sabablaridan biri, ayrim rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy barqaror firmalar, kompaniyalar va boy fuqarolar mahalliy byudjetga katta miqdordagi ixtiyoriy badallarni to'lab turishidir.

Xalqaro amaliyotda mahalliy byudjetlar harajatlarining miqdori va uning

tarkibi asosan, markaziy (federal) hukumat tomonidan olib borilayotgan byudjet siyosatiga hamda ijtimoiy sohani boshqarish qay darajada nomarkazlashtirilganiga bevosita bog'liqdir. Ushbu omil esa, mahalliy byudjetlar orqali sarflanadigan moliyaviy mablag'lar miqdori va ularning umumdavlat byudjet harajatlari tarkibida egallagan ulushiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning turli mamlakatlarida umumdavlat (federal) va mahalliy byudjetlari orqali sarflanadigan harajatlar nisbati bir-biridan o'zaro farq qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan va iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan Germaniya, Norvegiya, Finlyandiya va Fransiya mahalliy byudjetlari orqali sarflanadigan byudjet mablag'larining miqdori umumdavlat (federal) byudjet mablag'lari miqdoridan ko'proqni tashkil etadi. Xalqaro amaliyot tajribasi shundan dalolat beradiki, mamlakatda umumdavlat mablag'lari o'rtasidagi farq, ushbu mamlakatda markaziy (federal) hamda mahalliy hokimiyat tomonidan davlat byudjetining yirik harajatlari hisoblangan ijtimoiy dasturlarimoliyalashtirishdagi vakolat darajasiga bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiy harajatlardan tashqari, mahalliy byudjetlar orqali xududlardagi ekspluatatsiya va investitsiya harajatlari ham moliyalashtiriladi. Ushbu maqsadlarni moliyalashtirish uchun dunyoning ko'plab mamlakatlarida ikki xil byudjet, ya'ni joriy harajatlar byudjeti va rivojlanish byudjeti tuziladi. Ayrim mamlakatlarda qoida tariqasida joriy harajatlar byudjeti daromadlari asosan, barcha solikli va soliqsiz tushumlar hisobiga shakllantiriladi va uning mablag'lari xududlardagi ekspluatatsiya harajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Rivojlanish byudjeti daromadlari esa, yuqori byudjetdan ajratiladigan subvensiya, yuridik va jismoniy shaxslarning turli qurilishlarni amalga oshirish uchun xayriyalari hamda markaziy hukumat nomidagi mahalliy hokimiyatlar tomonidan muomalaga qarz majburiyatli qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali kelib tushgan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan muomalaga turli qarz majburiyatlari va qimmatli qog'ozlar chiqarib, mablag'lar jalb etish amaliyoti AQSH, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniyada juda rivojlangan.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mahalliy byudjetlar harajatlari tarkibida asosiy ulushni ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirish harajatlari, shuningdek, maorif harajatlari, ya'ni boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablariga sarflanadigan mablag'lar asosiy o'rinni egallaydi.

Ushbu maqsadga sarflanadigan harajatlar Germaniyada mahalliy byudjet umumiy harajatlarining 25,0 foizini, Yaponiya va Fransiyada 35,0 foizdan ortig'ini, Buyuk Britaniya va AQShda -40,0 foizdan ortig'ini tashkil etgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda masalan AQSH, Germaniyada oliy o'quv yurtlari harajatlari ham mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlarda, ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada ko'plab oliy o'quv yurtlari xususiy ekanligini e'tibordan qoldirmaslik lozim. Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy-madaniy tadbirlarning qariyb 80,0 foizi mahalliy byudjetlarorqali moliyalashtirilgan.

Ko'plab mamlakatlarda mahalliy byudjetlar harajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy harajatlardan keyingi o'rinni sog'liqni saqlash harajatlari egallaydi. Ayrim mamlakatlarda, masalan, Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyada sog'likni saqlash harajatlari mahalliy byudjet harajatlarining 50,0 foizidan ko'pini tashkil etadi. Rossiyada sog'liqni saqlash harajatlarining 88,0 foizi mahalliy byudjetlar orqalimoliyalashtirilgan.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida keyingi yillarda mahalliy byudjet harajatlari tarkibida uy-joy va kommunal xo'jalik, ya'ni uy-joy, suv-kanalizatsiya, yo'l, xo'jalik, shaharlarni obodonlashtirish va transport korxonalarini harajatlari ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab, ushbu mamlakatlarda aholi urbanizatsiya darajasining tez sur'atlar bilan o'sishi hisoblanadi. Ushbu omil esa, mahalliy xo'jalik tarkibining murakkablashuviga, kommunikatsiya obektlarining uzayishiga, ekspluatatsion harajatlarning ortishiga olib keladi. Yirik shaharlarda aholi jon boshiga sarflanadigan kommunal xizmat harajatlari kichik shaharchalar va qishloqdagi harajatlardan ancha yuqoridir.

Ko'plab mamlakatlarda mahalliy byudjetlar hisobidan mahalliy davlat boshqaruv organlari, xuquq-targ'ibot idoralari va ayrim mamlakatlarda sud organlarining saqlash harajatlari ham moliyalashtiriladi.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning rivojlanishi, yangi korxonalar, shu jumladan kimyo korxonalarining qurilishi, qishloq xo'jaligida turli xil kimyoviy ashyolardan foydalanishning ortishi, xududlarda atrof-muhitni muhofaza qilish harajatlarining yildan-yilga ortib borishiga olib kelmoqda. Ushbu harajatlarning ayrimlari mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtirilmoqda va yuqoridagi omillar asosida ushbu harajatlarning kelajakda o'sib borishi mumkin deb hisoblanmoqda.

Ilmiy tadqiqotimiz natijasida dunyoning ayrim mamlakatlarida mahalliy byudjet harajatlari tarkibida mahalliy hokimiyat organlarining qarzlarni so'ndirish va ular bo'yicha foizlarni to'lash bilan bog'liq harajatlarning salmog'ini nisbatan katta ekanligiga guvoh bo'ldik. AQShda mahalliy hokimiyat muomalaga chiqargan qimmatli qog'ozlarning miqdori korporativ aksiyalar va obligatsiyalar miqdoridan ortig'ini tashkil etadi. Fransiyada esa

muomalaga chiqarilgan qimmatli qogʻozlar va ular boʻyicha hisoblangan foizlarni toʻlash harajatlari mahalliy (munitsipal) byudjet harajatlarining 20,0 foizini tashkil etadi. Rossiyada amaldagi qonunchilikka asosan mahalliy byudjetlar harajatlari tarkibida qimmatli qogʻozlar boʻyicha asosiy qarz va ular boʻyicha hisoblangan foizlar 15,0 foizdan ortmasligi belgilab qoʻyilgan.